



**“O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi
“Urganch yoshlar texnoparki” davlat muassasasi**

**“O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi
“Urganch yoshlar texnoparki” davlat muassasasi va Urganch innovatsion
universiteti o‘rtasida imzolangan**

HAMKORLIK MEMORANDUMI

Urganch shahri, 2025-yil



O'zbekiston Respublikasi
innovatsion rivojlanish
agentligi huzuridagi
“Urganch yoshlar texnoparki”
davlat muassasasi

Urganch innovatsion
universiteti

**O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish agentligi
huzuridagi “Urganch yoshlar texnoparki” davlat muassasasi
hamda**

Urganch innovatsion universiteti o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida

MEMORANDUMI

“14 fevral 2025-yil

shahri

Urganch

Mazkur Memorandum O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2021-yil 12-maydagi 02-PA-1-8009-son bayoni 20.8-band “Har bir oliy ta'lif muassasalari rektorlari tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida o'qituvchi, talabalarga va yoshlarga puhta o'rgatadigan innovatsion ishlanmalar, g'oyalilar, robototexnika, IT dasturlash sohasidagi yosh olimlarni puhta o'rgatadigan markazlarni tashkil etish” to'g'risidagi topshirig'i hamda 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida **“Urganch yoshlar texnoparki” davlat muassasasi** hamda **Urganch innovatsion universiteti** o'rtasida (keyingi o'rnlarda Tomonlar deb yuritiladi) tuzilib, quyidagilar to'g'risida kelishib olindi:

1. Memorandum predmeti

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2021-yil 12-maydagi 02-PA-1-8009-son bayoni 20.8-band “Har bir oliy ta'lif muassasalari rektorlari tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida o'qituvchi, talabalarga va yoshlarga puhta o'rgatadigan innovatsion ishlanmalar, g'oyalilar, robototexnika, IT dasturlash sohasidagi yosh olimlarni puhta o'rgatadigan markazlarni tashkil etish” to'g'risidagi topshirig'i hamda 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lif

muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash maqsadida tuzildi.

2. Tomonlarning huquqlari:

2.1. Hamkorlikda tomonlar sheriklik asosida o‘qituvchi talabalar va yoshlarga Innovatsion ishlanmalar, G‘oyalar, Robototexnika, IT sohasida yosh olimlarni puxta o‘rgatadigan markazlarni tashkil etish;

2.2. Hamkorlik asosida oliv o‘quv yurtlarida o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlarda amalga oshirayotgan ishlar bilan tanishish va o‘zaro tajriba almashish;

2.3. Hamkorlikda xorijiy va mahalliy grant loyihamalarini amalga oshirish, ilmiy-tadqiqot yoshlarga innovatsion ishlanmalar, G‘oyalar, Robototexnika, IT sohasida yosh olimlar ishlarini olib borish, xalqaro ilmiy seminarlar, konferensiyalar, ko‘rgazmalar tashkil etish va hamkorligida yangi g‘oyalar yaratish;

2.4. Hamkorlik asosida o‘zaro professor-o‘qituvchilar, loyihamachilar, yosh olimlar, startapchilar bilan malaka oshirish, qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish bo‘yicha takliflar tayyorlash va ularni amalga oshirish.

3. Tomonlarning majburiyatları

3.1. Tomonlar davlat sheriklik asosida professor-o‘qituvchi va talabalarga, yoshlarni hunarga orgatish markazlari hamda kasbga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari (kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyati) bo‘yicha talaba va yoshlarni bo‘s sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadilar (keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan).

4. Davlat sheriklik asosida o‘qituvchi, talaba yoshlarning loyihamarini IT, Robototexnika hamda kasbga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari doirasida ta’lim faoliyatini amalga oshirish

4.1. Qabul qiluvchi (**Urganch Yoshlar Texnoparki**) jo‘natuvchi (**Urganch innovatsion universiteti talabalari, magistrantlari hamda universitetda faoliyat olib borayotgan doktorantlari**) uchun adaptatsion (moslashuv) tadbirlarini tashkil etadi va kurslar bo‘yicha yangi kelgan talabalar uchun maslahat beradi, imkoniyat bo‘lsa, butun o‘qish davri davomida ularga yordam beradi.

4.2. Dasturi bo‘yicha kelgan talabalar va yoshlarga belgilangan muddat davomida to‘liq o‘quv kursida belgilangan dastur asosida yuklamalarni bajaradi.

5. Pedagog-xodimlar almashinushi

5.1. Tomonlar Pedagog-xodimlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni rivojlantirishga intilishadi.

5.2. Tomonlar Pedagog-xodimlar o‘rtasidagi hamkorlikni ma’qullashadi, binobarin, bu mazkur kelishuv memorandumning 2.4-bandiga muvofiq tajriba almashish va hamkorlik qilish uchun asos bo‘ladi.

5.3. Tomonlar agar zaruriyat tug‘ilsa, hamkor OTM pedagog-xodimlarining almashivi to‘g‘risidagi qoidalar qo‘sishimcha memorandum doirasida alohida mustahkamlanishiga kelishib oladilar.

6. Memorandum amal qilish muddati

- 6.1. Memorandum tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va imzolangan kundan boshlab 3 yil davomida amal qiladi.
- 6.2. Memorandumining amal qilish muddati tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida uzaytirilishi yoki to'xtatilishi mumkin.

7. Memorandumni o'zgartirish va bekor qilish tartibi

- 7.1. Ushbu memorandumning shartlari o'zgartirilishi va to'ldirilishi mumkin. Ushbu memorandumga kiritilgan o'zgartirilishlar va qo'shimchalar tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan holda yozma ravishda rasmiylashtiriladi va ushbu memorandumning ajralmas qismi hisoblanadi.

- 7.2. Tomonlarning har biri boshqa tomonni 15 kun oldin 30 kundan kechiktirmay yozma ravishta xabardor qilib, memorandumni bekor qilishga haqlidir. Shu bilan birga, ushbu memorandum bo'yicha ta'lim olishni boshlagan talabalar uning bekor qilinish sanasidan qat'iy nazar, ushbu memorandumda belgilangan shartlar bo'yicha o'qishni yakunlaydilar.

8. Nizolarni hal qilish tartibi

- 8.1. Ushbu memorandum yuzasidan yoki u bilan bog'liq holda tomonlar o'rtaida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar tomonlar o'rtaida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

- 8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo'lмаган taqdirda, mazkur memorandumning tuzilishi, shartlarini o'zgartirish, bandlarining buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyligi yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

9. Boshqa shartlar

- 9.1. Ushbu memorandum bo'yicha hamkorlikni amalga oshirishda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va teng huquqlilik tamoillari asosida o'zaro munosabatda bo'lishadi.

- 9.2. Tomonlar ta'lim sohasida xizmat ko'rsatish faoliyati dasturlarining rivojlanishini doimiy nazarat qilish uchun javobgardir. Bunday nazarat o'zgarishlarini o'z vaqtida kiritish va sohadagi hamkorlikni yangi imkoniyatlarini aniqlash uchun zarurdir.

- 9.3. Ushbu memorandum tamonlarning har biri uchun ikki nusxada tuzilgan bo'lib, teng qonuniy kuchga egadir.

Tomonlarning rekvizitlari va imzolari:

"Urganch yoshlar texnoparki"
davlat muassasasi

Manzil: Xorazm viloyati Urganch tumani
Uchko'prik mahallasi "Al-Xorazimiyy"
hududi. Tel: +998975150022
E-mail: urganchyoshlartexnoparki@mail.ru

Direktor

O.Sh.Avezov



Urganch innovatsion universiteti

Manzil: Xorazm viloyati Urganch shahri
Gurlan ko'chasi, 2-uy
Tel: +998914362022, +998904362022
E-mail: info@uriu.uz



M.J.Ishmuratov